Tanlangan sport turida rejalashtirish va hakamlik faoliyati (1-qism)

1-Mavzu. O‘zbekistonda voleybol taraqqiyotini rejalashtirish va boshqaruvchi davlat hamda jamoat organlari

Ta’lim vaqti :2 soat.

Bugungi kunda mamlakatimizda voleybol sportining rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarish jarayoni jismoniy tarbiya va sport sohasiga mas’ul davlat tashkilotlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizimning asosiy bo‘g‘inlarini tuman, shahar hamda viloyat miqyosidagi sport boshqarmalari va ularning tarkibiy bo‘linmalari tashkil etadi. Ular joylarda voleybol bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish, sportchilar tayyorlash va musobaqalar tashkil etish bilan shug‘ullanadi. Yosh sportchilarni aniqlash, istiqbolli iqtidorlarni rivojlantirish va yuqori malakali voleybolchilar zaxirasini shakllantirish ishlari esa O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi tarkibidagi sport o‘yinlari bo‘limi tomonidan boshqariladi. Ushbu bo‘lim respublika bo‘ylab voleybol maktablari, sport klublari va o‘quv markazlari faoliyatini muvofiqlashtirib, murabbiylar malakasini oshirish, musobaqalar tizimini takomillashtirish va ilg‘or metodikalarni joriy etish bilan shug‘ullanadi.

Hududiy sport bo‘limlari har bir tuman, shahar va viloyatda faoliyat yuritib, joylarda voleybol sportini rivojlantirish, ommalashtirish hamda o‘smirlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish uchun mas’uldirlar. Ular sport maktablari, oliy ta’lim muassasalari va mahalliy jamoat tashkilotlari bilan uzviy hamkorlikda ishlaydilar. Voleybolni yanada ommalashtirishda va uning ijtimoiy ahamiyatini oshirishda kasaba uyushmalarining “Ko‘ngilli jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari” muhim o‘rin tutadi. Mazkur jamoat tashkilotlari respublika, viloyat va tuman darajasida sport musobaqalari, festivallar va sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish orqali aholining keng qatlamlarini voleybolga jalb etishmoqda. Shuningdek, voleybol bugungi kunda Oliy ta’lim muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv dasturlarida alohida o‘rin egallagan. Bu esa yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularni jamoaviy o‘yinlar orqali tarbiyalash va sportga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Respublika milliy terma jamoalarining murabbiylari nafaqat yuqori darajadagi sportchilarni tayyorlash, balki iqtidorli yosh voleybolchilarni aniqlash, ularning kasbiy o‘sishini ta’minlash va metodik rahbarlik qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular hududiy murabbiylarga uslubiy ko‘rsatmalar berish, trening dasturlarini zamonaviy metodlar asosida yangilash hamda ilmiy-amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali milliy voleybol maktabining barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shmoqdalar.

Voleybolning o‘quv muassasalarida ommalashuvi va uning ahamiyati

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida voleybol eng ommaviy va keng tarqalgan sport turlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Mamlakatning qishloq joylaridan tortib, yirik shahar markazlarigacha bo‘lgan hududlarda – maktab, kollej, texnikum, oliy o‘quv yurtlari, mahalla markazlari va ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritayotgan ko‘plab voleybol to‘garaklari aholining jismoniy faolligini oshirishda muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu to‘garaklarda muntazam shug‘ullanayotgan yoshlar va sport ixlosmandlarining soni yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa sportning ommaviyligini ta’minlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda samarali natijalar bermoqda. Voleybolning keng ommalashishiga bir qator omillar sabab bo‘lmoqda. Avvalo, mazkur o‘yin turlarining soddaligi, maxsus jihozlar va katta moliyaviy resurslarni talab qilmasligi, shuningdek, uni turli yoshdagi ishtirokchilar uchun mos va xavfsiz bo‘lishi jismoniy tarbiya tizimida uni eng qulay sport turlaridan biriga aylantirgan. Shu bois voleybol mashg‘ulotlari barcha turdagi ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida alohida o‘rin egallagan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida voleybol darslari jismoniy tarbiya fanining tarkibiy qismi sifatida o‘tiladi. Ko‘p yillik amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarni voleybol o‘yin texnikasi va taktikasiga bosqichma-bosqich, rejalashtirilgan tizim asosida o‘rgatish malakali sportchilarni tayyorlashda muhim poydevor vazifasini bajaradi. Shu maqsadda iqtidorli o‘quvchilar uchun Bolalar-o‘smirlar sport maktablari (BO‘SM) hamda Olimpiya zaxiralari tayyorlash markazlarida chuqurlashtirilgan mashg‘ulotlar yo‘lga qo‘yilgan. Bu muassasalar o‘z

faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni, Davlat ta’lim standartlari va yillik o‘quv rejalari asosida olib boradi. Voleybol to‘garaklari nafaqat maktab va sport muassasalarida, balki mahalla markazlari, turar joy massivlari, oromgohlar, dam olish uylari va sog‘lomlashtirish markazlarida ham tashkil etilgan. Bu kabi sport mashg‘ulotlari aholining barcha qatlamlari uchun sog‘lom hordiq, ijtimoiy faoliyat va jismoniy yetuklikni ta’minlaydi. Shuningdek, bolalar va o‘smirlarni bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazishga, ularni turli zararli odatlardan saqlashga, jamoadorlik va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida esa voleybol ikki yo‘nalishda rivojlanmoqda:

birinchidan, u jismoniy tarbiya fanining o‘quv mashg‘ulotlarida majburiy komponent sifatida o‘tiladi;

ikkinchidan, universitet va institutlar qoshida faoliyat yuritayotgan sport klublarida, ixtiyoriy asosda tashkil etilgan to‘garaklarda muntazam mashg‘ulotlar olib boriladi.

Texnikumlar va harbiy qismlarda ham voleybol mashg‘ulotlari alohida e’tibor markazida turibdi. Chunki u nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki harbiy-intizomiy ruh, tezkorlik va jamoaviy uyg‘unlikni rivojlantiradi. Shu bilan birga, voleybolni yanada keng ommalashtirish va uning rivojlanish samaradorligini ta’minlash bevosita davlat boshqaruvi va jamoat tashkilotlari faoliyatiga bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Milliy Olimpiya qo‘mitasi, O‘zbekiston voleybol federatsiyasi hamda kasaba uyushmalari hamkorligida amalga oshirilayotgan dasturlar sportchilar tayyorlash, murabbiylar malakasini oshirish, musobaqalar tizimini kengaytirish va sport infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan. Ushbu chora-tadbirlar natijasida voleybol sportining ilmiy-metodik asoslari yanada mustahkamlanmoqda, o‘quvchi va talabalar orasida sog‘lom raqobat muhiti shakllanmoqda.

Voleybol taraqqiyotini boshqaruvchi davlat hamda jamoat organlari

O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasi

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi nodavlat — notijorat tashkiloti bo‘lib, o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Olimpiya Xartiyasi hamda O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasining Ustavi asosida amalga oshiradi.

1992-yil 21-yanvarda Toshkent shahrida chaqirilgan konferensiya qarori bilan tashkil topgan. 1993-yil sentabr oyida Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining 101-sessiyasida tasdiqlangan. MOQ sport va jismoniy madaniyatni rivojlanitirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, Olimpiyadaga oid ta’lim, Olimpiya qadriyatlari ommalashtirish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash ishlarida ishtrok etadi, sport murabbiylari va sport tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi, Osiyo Olimpiya Kengashi, Milliy Olimpiya qo‘mitalari jamiyati va boshqa qator xalqaro sport federatsiyalari hamda tashkilotlari o‘rtasida mustahkam hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda Olimpiya xarakatini rivojlantirish, olimpizm g‘oyalarini keng targ‘ib etish;

Respublika sport delegatsiyalarining Olimpiada, Osiyo, Butunjahon yoshlar o‘yinlarida vakili bo‘lish;

Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi, Osiyo Olimpiya Kengashi, boshqa mamlakatlar milliy olimpiya qo‘mitalari, xalqaro sport federatsiyalari va uyushmalari bilan qalin hamkorlik qilish, XOQning “Olimpiya birdamligi” dasturida ishtirok etish;

Respublika, aholisini jismoniy va ma’naviy tarbiyalashga, jismoniy tarbiya va sport, ayniqsa, milliy sport turlari, nogironlar o‘rtasida sportni rivojlantirishga har taraflama ko‘maklashish;

Mamlakat terma jamoalari va sport zaxiralarini tayyorlashda davlat, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga ko‘maklashish;

Yoshlarni boshqa mamlakatlar sportchilari bilan do‘stlik va birodarlikni mustahkamlash, musobaqalarda halol sport kurashi olib borish, raqibiga oliyjanoblik bilan munosabatda bo‘lish tamoyillari asosida tarbiyalash;

O‘zbekiston sportchilari yutuqlarini keng targ‘ib etish;

Sport kadrlari o‘rtasida tajriba ayriboshlash, ular malakalarini oshirish uchun anjumanlar, seminarlar tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi yozgi Olimpiya o‘yinlarida 1996-yildan 2024-yilgan ishtiroki hamda jami medallar soni quyidagi jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan.

1.1.1-jadval

O‘zbekistonning jami medallari								
Yil	**Ishtirokchi**	**Mezbon mamalakat**	**Bayroqdor**	**Oltin**	**Kumish**	**Bronza**	**Jami**	**O‘rin**
1996	71	USA Atalanta	Temur Ibragimov	0	1	1	2	58
2000	70	Australiya Sidney	Muhammadqodir Abdullayev	1	1	2	4	41
2004	69	Greece Afina	Abdulla Tangriyev	2	1	2	5	34
2008	56	China Pekin	Dilshod Mahmudov	1	2	3	6	40
2012	53	UK London	Elshod Rasulov	1	0	2	3	47
2016	70	BRA Rio-de-Janeyro	Bahodir Jalolov	4	5	7	13	21
2020	68	JPN Tokyo	Bahodir Jalolov Nigora Tursunqulov	3	0	2	5	32
2024	90	FRA Parij	Abdumalik Xalokov	8	2	3	13	13

			Zaynab Dayibekova					

Bosh Assambleya

Bosh Assambleya vakolatlariga quyidagilar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasida Olimpiya harakatini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni ko‘rib chiqish va ular bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilish;

XOQ yoki OOK vasiyligida o‘tkaziluvchi Olimpiya o‘yinlari, Osiyo o‘yinlari yoki boshqa sport musobaqalarini o‘tkazishda respublika shaharlari nomzodlarini taqdim etish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

O‘zbekiston MOQning kelgusi davr uchun faoliyat dasturlarini tasdiqlash;

Ijroqo‘m va MOQ Taftish komissiyasining hisobot yili va to‘rt yillik davr uchun faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarini ko‘rib chiqish va baholash;

O‘zbekiston MOQga a’zolik to‘g‘risida qaror qabul qilish;

Prezident, vitse-prezidentlar, Bosh kotib, ijro etuvchi qo‘mita a’zolari va taftish komissiyasi a’zolarini saylash;

Respublika sport federatsiyalari va ularga tenglashtirilgan birlashmalar (assotsiatsiyalar) ni tan olish;

Bosh Assambleya yiliga kamida bir marotaba o‘tkaziladi;

To‘rt yilda bir marotaba, navbatdagi yozgi Olimpiya o‘yinlari o‘tgan yildan keying yil O‘zbekiston Bosh Assambleyasining hisobot-saylovi o‘tkaziladi, unda Ijroqo‘mning hisoboti tinglanadi, rahbariy organlar saylovi o‘tkaziladi;

Bosh Assambleya faqatgina a’zolarining yarmidan ko‘pi ishtirok etganda va faqatgina kun tartibiga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega;

Qarorlar MOQ ishtirokchi a’zolarining ochiq yoki yopiq ovoz berish orqali oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Olimpiya o‘yinlariga tegishli masalalar hal qilinganda faqatgina MOQ Ijroqo‘mi a’zolari va Olimpiya o‘yinlari dasturlariga kiritilgan sport turlari bo‘yicha xalqaro federatsiyalar vakillari ovozi qabul qilinadi.

Ijro etuvchi qo‘mita

Bosh Assambleyalar davrida O‘zbekiston MOQ faoliyatiga tarkibi Bosh Assambleya tomonida belgilanadigan Ijro etuvchi qo‘mita boshchilik qiladi. O‘zbekiston MOQ tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Prezident
- Vitse-prezidentlar
- Bosh kotib
- Ijroqo‘m a’zolari

Ijroqo‘m majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

Ustavga amal qilinishini ta’minlash;

Bosh Assambleya kun tartibini, uni o‘tkazish vaqti va joyini aniqlash;

O‘zbekiston MOQ budjetini, faoliyatining moliyaviy va ma’muriy qoidalarini tasdiqlash, shuningdek, ularni amalga oshirishni nazorat qilish;

Doimiy komissiya ro‘yxatini tasdiqlash, ularning faoliyati va vakolatlari doirasini aniqlash;

Bosh Assambleya topshiriqlarini bajarish;

O‘zbekiston MOQning yangi a’zolarini tan olish bo‘yicha, MOQ a’zolarini mukofotlash bo‘yicha va ustav qoidalari buzilgan hollarda MOQ a’zolariga nisbatan jazo choralari ko‘rish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

O‘zbekiston MOQ imzolagan shartnomalar, kelishuvlar va boshqa bitimlarning shartlarini ko‘rib chiqish;

O‘zbekiston terma jamoalarining Olimpiya, Osiyo o‘yinlari va XOQ va OOK shafeligida o‘tkaziluvchi boshqa kompleks xalqaro musobaqalariga tayyorgarlik ko‘rishi va qatnashishi masalalarini ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish;

Tegishli respublika sport federatsiyalari tomonidan taqdim etilgan sportchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish. Sport federatsiyalari tomonidan taqdim etilgan ro‘yxatlarning Olimpiya Xartiyasiga mos tushishini (har tomonlama) ta’minlash;

Sport federatsiyalari a’zolarining ekipirovkasi, transportirovkasi va joylashishini tashkil etish;

Delegatsiya a’zolari foydasiga baxtsiz hodisalar (nogironlik, o‘lim, kasallik, tibbiy va dori-darmon harajatlari) va uchinchi shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarlikdan sug‘urtalash to‘g‘risidagi shartnomalar tuzish. Sport delegatsiyasi a’zolarining yurish-turishiga ma’suliyatni o‘z bo‘yniga olish;

Ijroqo‘m o‘z majlislarini zarur hollarda, lekin bir yilda kamida uch marta o‘tkazadi, shuningdek, majlis MOQ Prezidenti qarori bilan yoki Ijroqo‘m a’zolarining 1/3 qismi talabi bilan ham o‘tkazilishi mumkin;

Ijroqo‘m majlisda o‘z a’zolarining kamida yarmi ishtirok etgan taqdirda qaror qabul qilishi mumkin;

Qarorlar mavjud Ijroqo‘m a’zolarining ochiq ovoz berishi orqali oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar soni teng bo‘lib qolgan taqdirda, Prezident ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Olimpiya Birdamligi

Olimpiya Birdamligi dasturining Nizomi 1978-yili Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining maxsus komissiyasida ma’qullangan. Uning vaqtinchalik qarorgohi Rim shahridagi Italiya Milliy olimpiya qo‘mitasi binosida joylashgan edi, 1980-yili Shveysariyaning Lozanna shahriga ko‘chirildi. 1981-yili Baden-Baden shahrida o‘tkazilgan Olimpiya Kongressidan so‘ng Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi ushbu komissiyaga ma’muriy muxtorlik berdi.

Milliy olimpiya qo‘mitalarining amaliy faoliyatiga ko‘maklashish uchun 1973-yilda Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Olimpiya Birdamligi dasturi maxsus jamg‘armasini ta’sis etdi (telekompaniyalarning olimpiya musobaqalari translyatsiyasidan olingan mablag‘larning 1/3 qismi). Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining ushbu dasturi vazifasi asosan Milliy olimpiya qo‘mitalari faoliyatini muvofiqlashtirish va olimpiya harakatini rivojlantirishga ko‘maklashishdan iborat.

Dastur maqsadlari

Olimpiya Birdamligi qabul qilgan dasturning asosiy maqsadlari quyidagilardir:

Olimpizmga asoslangan tamoyillarni tarqatish;

Murabbiylar, Milliy Olimpiya Qo‘mitasi boshqaruvchi kadrlarini tayyorlaydigan turli kurslar va seminarlar tashkil etish;

Sport ma’murlarini tayyorlash;

Milliy Olimpiya Qo‘mitasi rahbarligi yoki shafeligida milliy, hududiy va min taqaviy miqyosdagi musobaqalarni tashkil etishga, shuningdek, hududiy yoki mintaqaviy o‘yinlarda ishtirok etish uchun delegatsiyalarni tayyorlashga ko‘maklashish;

Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etish uchun sportchilar va ja moalarni tayyorlashda MOQga ko‘maklashish va murabbiy hamda sportchilarga stipendiyalar to‘lash;

Sport anjomlari va jihozlar bilan ta’minlash;

Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etish uchun kompensatsiya to‘lash;

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning Milliy Olimpiya Qo‘mitasi faoliyatiga amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida murabbiylar, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislarni yo‘naltirish;

Sport-uslubiy, informatsion va boshqa ko‘plab maxsus adabiyotlar va hujjatlarni chop ettirish va boshqalar.

1984-yildan buyon Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Milliy olimpiya qo‘mitalarining muayyan sportchilari va rasmiy shaxslarining yozgi va qishki Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etishi uchun yo‘l harajatlarini qoplab kelmoqda.

Ushbu dasturlar Olimpiya Birdamligi Komissiyasi nazoratidadir. Mazkur komissiya Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Prezidenti tayinlagan a’zolardan tarkib topgan bo‘lib, Olimpiya Birdamligi faoliyatini boshqarish va asosiy yo‘nalishlarini aniqlash uchun mas’uldir. Misol tariqasida dasturlarning tasdiqlanishi, ularning byudjeti, monitoringi, qo‘llanish vositalarini keltirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–18-sonli Farmoniga muvofiq Yoshlar siyosati va sport vazirligi negizida Sport vazirligi tashkil eilishi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar siyosati va sport boshqarmalari negizida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari tashkil etilishi belgilangan.

Farmonning 1-ilovasiga muvofiq quyidagilar Sport vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi:

a) sport sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda mazkur sohada qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

b) sohaga oid kompleks dasturlarni ishlab chiqish hamda sport sohasida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash;

d) aholi o‘rtasida sportni ommalashtirish va sog‘lom turmush tarziga keng jalb etish, sport ta’limi tizimini takomillashtirish, sport turlari bo‘yicha yuqori natijador sportchilar zaxirasini yaratish;

e) Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish, nufuzli xalqaro musobaqalarda sportchilarning muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlash;

f) sport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, sohani bosqichma-bosqich raqamlashtirish, sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

g) sport sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalar tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar taqdim etish;

h) normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini tashkil etish.

O‘zbekiston voleybol federatsiyasi

Mamlakatimizda voleybol sportining keng miqyosda rivojlanishi va ommalashuvi O‘zbekiston Voleybol Federatsiyasining tizimli faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur federatsiya O‘zbekiston Respublikasi hududida voleybol sohasidagi boshqaruvchi, muvofiqlashtiruvchi va rivojlantiruvchi markaziy jamoat tashkiloti sifatida faoliyat yuritadi. Uning asosiy vazifasi — voleybol sportining ommaviy bazasini kengaytirish, sportchilarning mahoratini oshirish, murabbiylar, hakamlar va mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishdan iboratdir.

Hududiy miqyosda voleybolni rivojlantirish bo‘yicha ishlar tuman, shahar va viloyat voleybol federatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Ular joylardagi sport maktablari, oliy ta’lim muassasalari, sport klublari va jismoniy tarbiya markazlari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Federatsiyaning oliy boshqaruv organi — Respublika anjumanidir. U mamlakatda voleybol sohasini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini belgilaydi, ustav hujjatlarini tasdiqlaydi va asosiy qarorlarni qabul qiladi. Anjumanda saylangan **Prezidium (rayosat)** federatsiyaning ijrochi organi sifatida faoliyat yuritadi.

Rayosat o‘z tarkibida **Ijroiya qo‘mitani** tashkil etadi. Ijroiya qo‘mitasi prezident, vitse-prezidentlar, bosh kotib hamda mutaxassislar ishtirokida quyidagi doimiy yo‘nalishlarda ish olib boradi:

- **Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish;**
- **Yuridik-huquqiy va normativ hujjatlar bilan ishlash;**
- **Moddiy-texnik bazani mustahkamlash;**
- **Ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish;**
- **Trenerlar kengashini muvofiqlashtirish;**
- **Ilmiy-uslubiy tadqiqotlar va metodikalar ishlab chiqish;**
- **Sport-texnik tayyorgarlikni oshirish;**

- **Bolalar va o‘smirlar sportini rivojlantirish;**
- **Xalqaro sport aloqalarini kengaytirish;**
- **Sport faxriylari bilan ishlash.**

Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar voleybolning ommalashuvi, musobaqalar tizimi, hakamlik malakasining oshishi va yangi iqtidorli sportchilarni tayyorlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Voleybolni xalqaro miqyosda boshqarish tizimi

Jahon miqyosida voleybol sportining rivojlanish jarayoni **Xalqaro Voleybol Federatsiyasi (FIVB)** tomonidan boshqariladi. Mazkur tashkilot Osiyo, Afrika, Yevropa, Shimoliy Amerika, Markaziy Amerika va Janubiy Amerika mintaqalarini qamrab oluvchi zonal konfederatsiyalar orqali faoliyat yuritadi.

FIVBning asosiy maqsadi — voleybolni butun dunyoda rivojlantirish, mamlakatlar o‘rtasidagi sport hamkorligini mustahkamlash, o‘yin qoidalarini takomillashtirish hamda xalqaro musobaqalar tizimini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Federatsiyaning oliy organi **Kongress** bo‘lib, u har ikki yilda bir marotaba o‘tkaziladi. FIVBning amaliy boshqaruv organi — **Ma’muriy kengash**, uning tarkibiga Prezident, Bosh kotib, 4 nafar vitse-prezident, 12 nafar a’zo va zonal konfederatsiyalar rahbarlari kiradi. Kengash qarorlarini bevosita hayotga tadbiq etuvchi organ — **Ijroiya qo‘mitasi** hisoblanadi.

Ijroiya qo‘mitasi tarkibida quyidagi beshta doimiy texnik hay’at faoliyat yuritadi:

1. **Tashkiliy-sport hay’ati** – xalqaro musobaqalarni rejalashtirish, tahlil qilish va kalendarini shakllantirish;

2. **Trenerlar hay’ati** – voleybol rivojlanayotgan mamlakatlarda trenerlik seminarlarini o‘tkazish, uslubiy yordam ko‘rsatish;

3. **Arbitraj hay’ati** – xalqaro hakamlarni tayyorlash, malaka oshirish va baholash;

4. **O‘yin qoidalari hay’ati** – o‘yin qoidalarini takomillashtirish, ularni yagona standartlarga moslashtirish;

5. **Tibbiy hay’at** – sportchilarning sog‘lig‘ini nazorat qilish, shikastlanishlarning oldini olish va tiklanish jarayonlarini boshqarish.

FIVB bugungi kunda 160 dan ortiq milliy federatsiyalarni o‘z tarkibiga birlashtirgan eng yirik xalqaro sport tashkilotlaridan biridir. Har bir a’zo davlat federatsiyasi a’zolik badallarini to‘lash, rasmiy musobaqalarda qatnashish hamda sport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ma’lum moliyaviy majburiyatlarga ega.

O‘zbekiston voleybol Federatsiyasi faoliyatida islohotlar

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mamlakat sport tizimida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Shu jarayonda **O‘zbekiston Milliy Voleybol Federatsiyasi** 1992 yilda **Osiyo Voleybol Konfederatsiyasi (AVC)** tarkibiga a’zo sifatida qabul qilindi. Bu voqea O‘zbekiston voleybolining xalqaro sport maydoniga chiqishida muhim tarixiy bosqich bo‘ldi.

Bugungi kunda Federatsiya nafaqat milliy chempionatlarni tashkil etadi, balki xalqaro musobaqalarda ishtirok etuvchi terma jamoalar tayyorgarligini ham muvofiqlashtiradi. Shu bilan birga, u voleybol hakamlari va murabbiylarini tayyorlash, sport infratuzilmasini rivojlantirish, xotin-qizlar voleybolini qo‘llab-quvvatlash, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha ko‘plab ijtimoiy loyihalarni amalga oshirmoqda.

GLOSSARIY

O‘zbek tili	English language	Русский язык
Hakam- sport musobaqasini nazorat qiluvchi, uning belgilangan qoidalar asosida o‘tishini ta’minlovchi, qatnashchi sportchilarning natijalarini baholovchi, uchrashuv paytida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etuvchi, umuman musobaqaning aniq me’yorlar asosida o‘tishiga mas’ul shaxs.	**Referee**- a referee is a person who supervises a sports competition, ensures that it is conducted according to the established rules, evaluates the results of participating athletes, resolves disputes that arise during the match, and is generally responsible for the conduct of the competition according to specific standards.	**Рефери** -лицо, осуществляющее надзор за спортивным соревнованием, обеспечивающее его проведение по установленным правилам, оценивающее результаты участвующих спортсменов, разрешающее споры, возникающие в ходе матча, а также отвечающее в целом за проведение соревнования по

		конкретным правилам. стандарты.
Kotib- (arab-yozuvchi) hakamlar kollegiyasi majlisi bayonnomasini yozib boradi, kur'a tashlash marosimini o'tkazadi va aylana bo'ylab uchrashuvlar tartibini belgilaydi, musobaqalar jadvalini tuzib chiqadi, hamma hakamlik xujjatlarini to'ldirib boradi, arizalar va norozilik bildirishnomalarini qabul qiladi, ular to'jrisida bosh hakamga xabar beradi, musobaqalarning o'tkazilishi to'jrisidagi texnik hisobotni tayyorlaydi	**The secretary**- (Arabic-writer) writes the minutes of the meeting of the referees' board, conducts the drawing of lots and determines the order of meetings in the circle, prepares the schedule of competitions, fills out the referee's documents, accepts applications and complaints. , informs the chief referee about them, prepares a technical report on the conduct of competitions	**Секретарь**-(араб.писатель) ведет протокол заседания судейской коллегии, проводит жеребьевку и определяет порядок встреч в кружке, готовит расписание соревнований, заполняет судейские документы, принимает заявки и жалоб., сообщает о них главному судье, готовит технический отчет о проведении соревнований.
Musobaqa- Kim o'zish, kim yaxshi natijalarga erishish uchun bo'lgan bellashuv.	**Competition -** a competition to win, to achieve better results.	**Конкуренция –** соревнование для победы, достижения лучших результатов.
Nizom- musobaqa o'tkazishda asosiy hujjat hisoblanadi. Nizom musobaqani o'tkazuvchi sport tashkiloti tomonidan tuziladi, hamda quyidagilarni ifodalaydi: 1 Musobaqaning maqsadi va vazifalari. 2 Musobaqani boshqarish. 3 Musobaqalarda qatnashuvchi tashkilotlar va sportchilar. 4 Musobaqalarni o'tkazish shartlari 5 Norozilik 6 Jamoalarni va qatnashuvchilarni mukofotlash 7 Jamoalarni qabul qilib olish 8 Talabnoma	**The regulation**-is the main document for holding the competition. The regulation is drawn up by the sports organization holding the competition, and represents the following: 1 The purpose and tasks of the competition. 2 Competition management. 3 Organizations and athletes participating in competitions. 4 Conditions for conducting competitions 5 Dissatisfaction 6 Awarding teams and participants 7 Acceptance of teams 8 Application	**Положение является основным документом проведения конкурса.** Положение составляется спортивной организацией, проводящей соревнования, и представляет собой следующее: 1 Цель и задачи конкурса. 2 Управление соревнованиями. 3 Организации и спортсмены, участвующие в соревнованиях. 4 Условия проведения соревнований 5 Недовольство 6 Награждение команд и участников 7 Прием команд 8 Применение
Taktika-Yunoncha "taktikus" so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida "tartiblashtirish" ma'nosini anglatadi.	**Tactics** is derived from the Greek word "taktikus" and means "arranging" in Uzbek.	**Тактика** происходит от греческого слова «taktikus» и на узбекском языке означает «организация»
Sport - qisqa ma'noda shaxsiy musobaqa faoliyati	**Sport** is a personal competitive activity in a short	**Спорт** – это личная соревновательная

deyilsa, keng ma’noda shaxsiy musobaqa faoliyati shu faoliyat asosidan kelib chiqadigan maxsus tayyorgarlik hamda uning norma va yutuqlari tushuniladi.	sense, and a personal competitive activity in a broad sense means a special preparation based on this activity, as well as its norms and achievements.	деятельность в кратком смысле, а личная соревновательная деятельность в широком смысле означает специальную подготовку, основанную на этой деятельности, а также ее нормах и достижениях.
Assotsiatsiya- (lot. associo – birlashish, qo‘shish) – umumiy maqsadga erishish uchun tuzilgan uyushma, ittifoq.	**Association**- (lat. associo - to unite, join) - an association, union formed to achieve a common goal.	**Ассоциация**-(лат. associo - объединяться, присоединяться) - объединение, союз, образующийся для достижения общей цели.
Federatsiya- bir yoki bir nechta sport turini rivojlantirish, ommalashtirish, shuningdek sport tadbirlarini o‘tkazishni tashkil etish.	**Federation**- development, popularization of one or more sports, as well as organization of sports events.	**Федерация** – развитие, популяризация одного или нескольких видов спорта, а также организация спортивных мероприятий.
Texnika-harakat orqali qo‘yilgan vazifani bajarish uchun kerak bo‘ladigan harakat faoliyati tizimining o‘zak qismi tushuniladi. Qo‘llangan usullar tananing qismlarini o‘zaro kelishgan holda, harakat faoliyatining ketma-ketligi tizimini buzmay, jismoniy sifatlarining keraklicha namoyon qilinishini taqazo etadi. Usul samarali bo‘lsa, amaliyotda unumli qo‘llanilishi mumkin va uzoq vaqt o‘zining hayotiy-amaliyligini saqlab qoladi.	**Technique** is the core part of the system of movement activity that is needed to perform the task set through movement. The used methods ensure that the parts of the body are properly displayed without breaking the system of the sequence of movement activities. If the method is effective, it can be effectively used in practice and remains viable for a long time.	**Техника** – это стержневая часть системы двигательной деятельности, необходимая для выполнения поставленной посредством движения задачи. Используемые методы обеспечивают правильное отображение частей тела, не нарушая системы последовательности двигательных действий. Если метод эффективен, он может эффективно использоваться на практике и сохраняет жизнеспособность в течение длительного времени.
Jismoniy tayyorgarlik – erishilgan va birlashgan ishchanlikni, amaliy harakatdagi ko‘nikma va malakalarni maqsadli faoliyatning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha tashkil topgan jismoniy tayyorgarlik natijasidir.	**Physical training** is the result of physical training, which consists of the achieved and combined work, skills and competencies in practical action to influence the effectiveness of the target activity.	**Физическая подготовка-** это результат физической подготовки, который складывается из достигнутой и совмещенной работы, умений и умений в практическом действии, оказывающих влияние на эффективность целевой деятельности.

Sport tayyorgarligi-jismoniy tarbiyada maxsus yo‘nalishni ifoda etadi. Buning vazifasi insonni tanlab olingan biror sport turida yuqori natijalarga erishishni ta’minlashdir.	**Sports training** represents a special direction in physical education. Its task is to ensure that a person achieves high results in a chosen sport.	**Спортивная тренировка** представляет собой особое направление физического воспитания. Его задача – добиться того, чтобы человек достиг высоких результатов в выбранном виде спорта.

Nazorat savollari.

1. O‘zbekiston voleybol Federatsiyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Respublika voleybol federatsiyasining oliy rahbar organi qanday nomlanadi?
3. Hududiy (tuman, viloyat, shahar) federatsiyalar qaysi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi?
4. Voleybolni ommaviylashtirishda davlat va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligi qanday yo‘lga qo‘yilgan?
5. Voleybol federatsiyasining boshqaruv tizimi qanday tuzilgan?
6. O‘zbekiston voleybol federatsiyasi xalqaro tashkilotlar bilan qanday aloqada bo‘ladi?
7. Mahalliy federatsiyalar voleybol musobaqalarini tashkil etishda qanday mas’uliyatni bajaradi?
8. Respublika anjumani voleybol federatsiyasi faoliyatida qanday rol o‘ynaydi?
9. Federatsiya faoliyatida trenerlar, hakamlar va sportchilar bilan ishlash qanday yo‘lga qo‘yilgan?
10. O‘zbekiston voleybolining rivojlanishida ommaviy sport tadbirlarining o‘rni qanday?
11. Sport trenirovkasi jarayonining sikllliligi deganda nima tushuniladi?
12. Mikrosikl nima va u odatda necha kun davom etadi?
13. Mezosiklning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
14. Makrosikl tushunchasini izohlang va uning davomiyligini ko‘rsating.
15. Ko‘p yillik sport tayyorgarligi bosqichlari qaysilar?
16. Trenirovka jarayonining mikrostrukturasi qanday elementlardan tashkil topadi?
17. L.P. Matveyev tomonidan trenirovka strukturasi nechta darajaga bo‘lingan?
18. Superkompensatsiya hodisasi trenirovka jarayonida qanday ahamiyatga ega?
19. Mashg‘ulot yuklamalarini noto‘g‘ri rejalashtirish sportchiga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatadi?
20. Voleybolchilarning texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda sikllilik tamoyilining ahamiyatini tushuntiring.
21. Ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida boshqaruv va rejalashtirishning ahamiyatini tushuntiring.

22. Jamoa etalon modeli va tayyorgarlik jarayoni modeli o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlang.
23. Boshqaruv maqsadlari blokining asosiy yo‘nalishlarini sanab bering.
24. Modelliy blokda bajariladigan ishlarning mazmunini bayon eting.
25. Dasturiy blok orqali tayyorgarlik qanday rejalashtiriladi?
26. Jarayonli blokda mashg‘ulotlarni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
27. Nazorat blokining vazifalari va uning tayyorgarlik jarayonidagi roli qanday?
28. Zamonaviy voleybolda texnik-taktik harakatlar nisbatining o‘zgarish sabablarini tushuntiring.
29. Erkaklar jamoasini shakllantirishda yosh tarkibi va amplua muvozanati nega muhim?
30. Mikrotsikllar tuzilmasining sport formasi dinamikasiga ta’sirini izohlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-394-son, 2015-yil 4-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-18-son Farmoni.

3. Matveyev L.P. Теория и методика физической культуры. – M.: Физкультура и спорт, 1991. – 543 b.

4. Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 208 b.

5. Pulatov A.A., Ummatov A.A., Pulatov F.A. Voleybol. – Toshkent: Ilmiy texnika axboroti press, 2017. – 132 b.

6. Pulatov A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: O‘zkitobsavdonashriyoti, 2020. – 450 b.

7. Maxmudov M.K. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi. – Buxoro: Durdona, 2022. – 268 b.

8. Safarboyev N.Sh., Saparboyev M.Sh. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi (Voleybol). – Toshkent: Lesson Press, 2022. – 181 b.

9. Ro‘zmetov R.N. Tanlangan sport turi bo‘yicha mutaxassislikka kirish (Voleybol). – Urganch: Khwarezm publication, 2024. – 412 b.

10. Ibragimov A.K. Sport mahoratini oshirish. – Toshkent: “BUXORO DETERMINANTI” MCHJning Kamolot nashriyoti, 2024. – 288 b.

11. FIVB. Official Volleyball Rules 2025–2028. – Fédération Internationale de Volleyball, 2025.

12. Guliston davlat universiteti. “Tanlangan sport turida rejalashtirish va hakamlik faoliyati” fanining o‘quv dasturi. – Guliston, 2025.